

INTERNET TARMOG‘IDAGI DESTRUKTIV HATTI-XARAKATLARNING IJTIMOYIY BARQARORLIKKA TA’SIRI

Karimov Ulug‘bek Dilmurodjonovich
Andijon davlat pedagogika institute
Tarix kafedrasida katta o‘qituvchisi
Tel: (93) 440-42-42
E-mail: ulugbek.karimov4242@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19428417>

Annotatsiya: Mazkur maqolada internet tarmog‘idagi destruktiv hatti-xarakatlarning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri bayon qilingan. Zamonaviy jamiyatda internet faqatgina axborot texnologiyasi emas, balki mafkuraviy, madaniy va axloqiy jarayonlarni shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Internet faqat tashqi tahdidlar (jamg‘arma targ‘iboti, xorijiy siyosiy manipulyatsiya) emas, balki ichki ijtimoiy beqarorlik va ma’naviy bo‘shliqlarning ham indikatoriga aylanmoqda. Ayniqsa, tashkilotlashmagan yoshlar, ayollar va ishsiz qatlamlar ma’lum mafkuraviy guruhlar ta’siriga tushib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: internet, destruktiv hatti-xarakatlar, ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье описывается влияние деструктивного поведения в интернете на социальную стабильность. В современном обществе интернет — это не только информационная технология, но и сложная социальная реальность, формирующая идеологические, культурные и моральные процессы. Интернет становится индикатором не только внешних угроз (финансовая пропаганда, внешнеполитические манипуляции), но и внутренней социальной нестабильности и духовных пробелов. В частности, под влияние определенных идеологических групп попадают неорганизованная молодежь, женщины и безработные слои населения.

Ключевые слова: интернет, деструктивное поведение, социальная сеть, социальная стабильность.

Abstract: This article describes the impact of destructive behavior on the Internet on social stability. In modern society, the Internet is not only an information technology, but also a complex social reality that shapes ideological, cultural and moral processes. The Internet is becoming an indicator not only of external threats (fund propaganda, foreign political manipulation), but also of internal social instability and spiritual gaps. In particular, unorganized youth, women and unemployed strata are falling under the influence of certain ideological groups.

Keywords: Internet, destructive behavior, social network, social stability.

Hozirgi kunda onlayn platformalar shaxslarning o‘z qarash va pozitsiyalarini bayon etishdagi anchayin ommaviy makonga aylanib ulgurdi. Turli xil masalalar bo‘yicha munosabat bilidishda doim ham qandaydir muammolar sezilgan. O‘rta asrlarda o‘zgacha fikrlovchilar qattiq ta’qib qilingani, hattoki gulxanga yoqilgani yoki terisi shilib olingani ma’lum. Mana shunday sharoitda ham insonlar turli yo‘llar bilan bo‘lsa ham o‘z fikrlarini bayon qilishdan to‘xtamaganlar. Shuning uchun ham ayrim hollarda fikrlarni bayon qilish uchun odamlar taxalluslarni o‘ylab topgan. Taxalluslar esa odamlarni jamiyatni ko‘zidan pana qilib, fikrlar aslida kimniki ekanini yashirib turgan. Internetda ham biz amalda o‘z taxalluslarimiz orqali muloqotga kirishamiz. Internetdagi anonimlikning turli xil tomonlari xususida yuqoridagi fasllarda ham so‘z yuritdik. Bu o‘rinda ijtimoiy beqarorlik nuqtai nazaridan internetdagi anonimlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib

berishga harakat qilamiz. Ushbu kontekstdan turib kiberbulling, deziformatsiya va boshqa destruktiv holatlarning mohiyatini tushunib olish mumkin bo’ladi.

Internetdagi anonimlik nisbiy tushuncha bo’lib, qaysidir dasturchilar tomonidan yaratilgan protokollar albatta kamida uning yaratuvchisi bo’lganlar yoki uning egalari yoxud maxsus xizmatlar uchun ochiq bo’ladi. Misol uchun, barcha ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilari bir birilariga tegishli bo’lgan yashirin ma’lumotlarni ko’ra olmasliklari mumkin. Ammo tizim ma’muri deb ataladigan shaxslar har bir foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini bemalol ko’rishlari mumkin. Turli xalqaro kelishuvlar, shartnomalar va milliy darajadagi qonunlar bilan ushbu holatlarga chek qo’yishga intilish kuzatilayotgan bo’lsada, amalda internet texnologiyalari baribir qaysidir qatlam uchun shaffof hisoblanadi. Shunday sabablarga qaramasdan “Juda ko’p internet foydalanuvchilari aynan anonimlik muhim maqsadlarga erishda vosita deb hisoblaydilar.”[1]

Keltirib o’tilgan dalillar qanchalik salmoqli bo’lmasin, muallif g’oyalarini amalga oshirishning qator to’siqlari bor. Jumladan, hozirgi bosqichda texnologik jihatdan har bir foydalanuvchining identifikatsiyadan o’tishini ta’minlovchi dasturiy ta’minot va texnik vositalar mavjud emas. Bu kabi sun’iy to’siqlar oqibatida internetdan noqnuniy ravishda anonim foydalanish hollari ko’payadi va bu jamiyatda yangi huquqbuzurliklar va jinoyalarning sodir bo’lishiga olib kelishi mumkin. Davlat tomonidan yalpi identifikatsiya tizimi har bir shxas haqidagi ma’lumotlarni bir tashkilot, (davlat) qo’lida to’planib qolishga, kelajakda esa uni g’arazli maqsadlarda foydalanisha sabab bo’lishi mumkin. Chunki, davlat jamiyatning siyosiy instituti sifatida jamiyatdagi o’zgarishlarga hamohang ravishda doimo harakatda bo’ladi. Uning yo’nalishi, maqsad va vazifalari ba’zan keskin o’zgarib ketishi ham mumkin. Davlat siyomosida esa ma’lum bir sohaga vakolatli organlar birlashtiriladi va shu orqali tegishli tarmoqdagi ishlar tashkil etiladi. Misol uchun, 30 mln internet foydalanuvchisining butun faoliyatini bir tashkilot muntzam ravishda ko’rib turishi oqibatida keyinchalik o’shsha ma’lumotlarni o’g’irlanishi, tarqalib ketishi va boshqa g’arazli maqsadlarni ko’zlagan insonlarni qo’liga tushishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda tarixdagi ma’lumot bir faktlarni berkitish uchun arxivlarni o’zgartirib yoki yo’q qilib yuborish hollari ham mavjud. Misol uchun, Jorj Oruelning “1984” nomli romani bosh qahramoni oliy davlat tashkilotida ishlaydi va asosiy vazifasi o’tmishdagi tarixiy xornikani yo’qotib, uning o’rniga joriy tuzumni ulug’laydigan ma’lumotlarni kiritishdan iborat.[6] Shu nuqtai nazardan mamlakatdagi barcha aholinii shaxsiy ma’lumotlarini to’plash va uni saqlab turish katta resusrlarni talab qiladi va ushbu katta hajmdagi ma’lumotlardan g’arazli maqsadlarda foydalanish ehtimoli yuqori. Shu sababdan ham hozirgi bosqichda har bir fuqaroning internetga kirish imkoniyatini identifikatsiya qilish maqsadga muvofiq emas. Kelgusida ko’p bosqichli identifikatsiya va shaxsiy ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashning xavfsiz usuli o’ylab topilganda shu kabi harakatlarni amalga oshirish mumkin bo’ladi. Xulosa qilib aytganda esa, insoniyat tarixida internet kabi uning butun borlig’ini qamrab oladigan bitta sun’iy tizim bo’lmagan va bu kabi sun’iy tizimni siyosiy instiutlar qo’liga topshirish oqibatida juda katta huquqiy muammolar kelib chiqishi mumkin.

Anonimlikning ruhiy tomonlari bo’yicha qator tadqiqotlar o’tkazilgan. Ularda internet tarmog’idagi anonimlik natijasida insonning o’zligini namoyon qilish jarayoni ham o’zgargani, endilikda intennet qonunlari deb ataladigan, anonimlik va boshqa jihatlarni o’zida aks ettirgan shart-sharoitda foydalanuvchilarning o’zlarini identifikatsiya qilishi ham ancha o’zgargani qayd etib o’tiladi.[7] Haqiqatdan ham anonimlik inson ruhiyati bilan ham bog’liq masallar sirasiga kiradi. Intennet tarmog’idagi juda ko’p jinoyatlar ruhiyati buzilgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Seriyali qotillar, zo’ravon va boshqa turdagi ruhiy buzilishi mavjud shaxslar o’zlarini boshqa shaxs qilib ko’rsatib qurboirlarni o’ziga jalb qilish hollari ham ko’p uchraydi. Odatda

jabrlanuvchining pul mablag‘larini yechib olish bilan tugaydigan bunday aloqalar, ayrim hollarda foydalanuvchilarning sog‘lig‘i yohud hayotiga xavf solish bilan ham yakunlanishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda internet faqatgina axborot texnologiyasi emas, balki mafkuraviy, madaniy va axloqiy jarayonlarni shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. U insonning ma’naviy hayoti, shaxsiy ongi va ijtimoiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi yangi dunyoviy muhit yaratdi. Ammo bu muhitda taraqqiyot imkoniyatlari bilan bir qatorda, jamiyat barqarorligi va inson qadriga tahdid soluvchi destruktiv harakatlar ham shakllanmoqda.

Internetdagi destruktiv faoliyat turlari – ekstremizm, trolling, feyk axborot, manipulyativ kontent, kiberjinoyatlar, ongni zaharlovchi "ommaviy madaniyat" va boshqa xatarlar – jamiyatning ma’naviy immuniteti zaiflashgan qismlarida tez tarqalmoqda. Bunda, ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida internet foydalanuvchilarining ma’lum qismi ko‘ngilochar kontent, fursatboz xayp va yoshlarga manfaatsiz axborotlar ifodasiga aylanib qolgani tashvishli holatdir.

Internet faqat tashqi tahdidlar (jamg‘arma targ‘iboti, xorijiy siyosiy manipulyatsiya) emas, balki ichki ijtimoiy beqarorlik va ma’naviy bo‘shliqlarning ham indikatoriga aylanmoqda. Ayniqsa, tashkilotlashmagan yoshlar, ayollar va ishsiz qatlamlar ma’lum mafkuraviy guruhlar ta’siriga tushib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. П. А. Ивлиев (2019). Анонимность в интернете: проблемы и особенности. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (4-2), 6-8. doi: 10.24411/2500-1000-2019-10738
2. Жумаев Б. Кибержиноятларни тергов қилиш: муаммо ва ечимлар. Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2021. – Б. 11.
3. Жорж оруэлл. 1984. Ниҳол, 2021. Тошкент. – Б.338.
4. Мартъянов Денис Сергеевич (2014). Сетевая идентичность: трансформация феномена и подходов к изучению. *Политическая экспертиза: ПОЛИТЭКС*, 10 (4), 142-160.
5. <https://www.france24.com/en/20200713-french-police-announce-arrest-of-darknet-paedophilia-site-operator>